

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
IQTISODIYOT FANLARI BO'YICHA FAN DOKTORI (DSC) VA  
FALSAFA DOKTORI (PHD) ILMIY DARAJASINI BERUVCHI  
DSC.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

UDK 336.71:331.461


**NABIYEV BEKZOD KAMALIDDINOVICH**

**TIJORAT BANKLARI DAROMADIGA TA'SIR QILUVCHI MOLIYAVIY  
RISKLARNI BAHOLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN  
FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI**

08.00.07 – «Moliya, pul muomalasi va kredit»

**IQTISODIYOT FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTATSIYASI**

Toshkent shahri – 2023 yil



<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>I-BOB. MOLIYAVIY RISKLARNING IQTISODIY MAZMUNI, NAZARIY ASOSLARI VA ULARNING TURLARI.....</b>	<b>13</b>
<b>1.1. Tijorat banklariga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarni boshqarishning nazariy masalalari.....</b>	<b>13</b>
<b>1.2. Tijorat banklari daromadiga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarni baholashning jahon tajribasidan amaliyotda foydalanish yo'llari.....</b>	<b>25</b>
<b>1.3. Xorijiy banklar amaliyotida moliyaviy risklarni raqamli texnologiyalar asosida baholash usullari.....</b>	<b>36</b>
<b>I bob bo'yicha xulosalar.....</b>	<b>48</b>
<b>II-BOB. TIJORAT BANKLARI DAROMADINI SHAKLLANTIRUVCHI IQTISODIY KO'RSATKICHLAR TAHLILI.....</b>	<b>50</b>
<b>2.1. Tijorat banklari foizli daromadlariga risklarning ta'sir qilish modeli.....</b>	<b>50</b>
<b>2.2. Bank foizli daromadiga moliyaviy risklarni ta'sir qilish dinamikasi .....</b>	<b>64</b>
<b>2.3. Tijorat banklarida operatsion risklarni minimallashtirish yo'llari .....</b>	<b>75</b>
<b>2.4. Tijorat banklari kredit portfelini diversifikatsiyalash orqali risklarni darajasiga ta'sirini aniqlash modeli .....</b>	<b>94</b>
<b>II bob bo'yicha xulosalar .....</b>	<b>108</b>
<b>III-BOB. TIJORAT BANKLARI DAROMADIGA TA'SIR QILUVCHI MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....</b>	<b>109</b>
<b>3.1. Tijorat banklarini raqamlashtirish orqali moliya bozoridagi faoliyatini rivojlantirish masalalari .....</b>	<b>109</b>
<b>3.2. Tijorat banklari daromadiga ta'sir qiluvchi risklarni yuzaga keltiruvchi omillar va ularni oldini olish yo'llari.....</b>	<b>117</b>
<b>3.3. Tijorat banklari daromadiga ta'sir qiluvchi moliyaviy risklarni baholashda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari .....</b>	<b>127</b>
<b>III bob bo'yicha xulosalar .....</b>	<b>136</b>
<b>XULOSA .....</b>	<b>137</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI .....</b>	<b>142</b>

## KIRISH

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda dunyo davlatlarining iqtisodiy barqaror taraqqiyotini rivojlantirish, raqobotbardoshligini oshirish, jamiyat farovonligini ta'minlash, banklarning xizmat sifatiga ta'sir qiluvchi risklarni baholashni yanada takomillashtirish aynan raqamli texnologiyalar asosida amalga oshirish muhim hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli iqtisodiyotga sarflanayotgan mablag'lar yil davomida oshib borayotganini kuzatish mumkin. Jumladan, «Xitoy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari akademiyasi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, Xitoyning raqamli iqtisodiyoti 2021 yili 5,4 trln. AQSH dollariga teng bo'lib, dunyoda AQSHdan (13,6 trln. AQSH dollari) keyin ikkinchi o'rinni egallagan. Uchinchi o'rinni Germaniya (2,54 trln. AQSH dollari), Yaponiya (2,48 trln. AQSH dollari), Buyuk Britaniya (1,79 trln. AQSH dollari), Fransiya (1,19 trln. AQSH dollari), J. Koreya (847,8 mlrd. AQSH dollari), Hindiston (514,9 mlrd. AQSH dollari), Kanada (434,5 mlrd. AQSH dollari) hamda Italiya davlati (377, mlrd. AQSH dollari) to'g'ri kelgan. O'rganilgan 47 mamlakat va mintaqadagi raqamli iqtisodiyot bozorining hajmi 2021 yilda yiliga 3 foizga o'sib, 32,6 trillion AQSH dollarini tashkil etgan»<sup>1</sup>.

«Global raqamli bank bozorining hajmi 2018 yilda 803,8 mlrd. AQSH dollarga baholangan va 2027 yilga kelib 1,610 mlrd. AQSH dollariga yetishi kutilmoqda»<sup>2</sup>. Raqamlashtirishdan moliyaviy operatsiyalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirishga va turli jarayonlarga foydalanish qulayligi, uning raqamli bank bozorining o'sishiga turtki bo'lishi kutilmoqda, shu bilan birga ushbu jarayonni rivojlanishi esa ma'lumotlarning buzilishi bozor o'sishiga tahdid solishiga olib kelishi mumkin. Bank amaliyotida ilg'or zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asosida mijozlarga xizmat ko'rsatish imkoniyatini oshirish va ularning sifat darajasini ko'tarish muammolariga bag'ishlangan

---

<sup>1</sup> <https://rankingroyals.com/top-10-countries-in-digital-economy-2021/>

<sup>2</sup> <https://www.researchdive.com/53/digital-banking-market>